

**MORFOLOGIK USLUBIYAT.OT TURKUMIGA XOS USLUBIY  
XUSUSIYATLAR.SIFAT TURKUMIGA XOS USLUBIY XUSUSIYATLAR**

**МОРФОЛОГИЧЕСКАЯ СТИЛИСТИКА – РАЗДЕЛ ЯЗЫКОЗНАНИЯ,  
ИЗУЧАЮЩИЙ СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ  
УПОТРЕБЛЕНИЯ ЧАСТЕЙ РЕЧИ И ГРАММАТИЧЕСКИХ ФОРМ В  
РЕЧИ.**

**MORPHOLOGICAL STYLISTICS IS A BRANCH OF LINGUISTICS THAT  
STUDIES THE STYLISTIC USE OF PARTS OF SPEECH AND  
GRAMMATICAL FORMS IN SPEECH AND WRITING.**

*Andijon Davlat pedagogika instituti  
Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim  
kafedrasi PhD dotsenti **Usmonova Xurshida Aybekovna**  
E-mail: Usmonovaxurshida34@gmail.com  
Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim  
yo'nalishi 202-guruh talabasi  
**Abduhamidova Munisxon Sodiqjon qizi***

**Annotatsiya:**Ushbu ishda morfologik uslubiyatning nazariy asoslari, ot va sifat so'z turkumlarining uslubiy xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida otlarning nutq aniqligi, mantiqiyligi va mazmun boyligini ta'minlashdagi o'rni hamda sifatlarning nutqning ta'sirchanligi, obrazlilik va emotsional-ekspressivligini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ushbu so'z turkumlarining turli nutq uslublarida qo'llanish xususiyatlari misollar asosida tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:**morfologik uslubiyat, ot turkumi, sifat turkumi, uslubiy xususiyatlar, nutq uslubi, tilshunoslik, grammatik shakllar, obrazlilik, ta'sirchanlik, nutq madaniyati.

**Аннотация:**В данной работе рассмотрены теоретические основы морфологической стилистики, а также стилистические особенности имени существительного и имени прилагательного. В ходе исследования раскрыта роль существительных в обеспечении точности, логичности и содержательности речи, а также значение прилагательных в повышении выразительности, образности и эмоциональной насыщенности текста. Кроме того, на примерах проанализированы особенности употребления данных частей речи в различных функциональных стилях.

**Ключевые слова :** морфологическая стилистика, имя существительное, имя прилагательное, стилистические особенности, речевой стиль, языкознание, грамматические формы, образность, выразительность, культура речи.

**Annotation:** This paper examines the theoretical foundations of morphological stylistics and the stylistic features of nouns and adjectives. The study highlights the role of nouns in ensuring precision, coherence, and richness of speech, as well as the importance of adjectives in enhancing expressiveness, imagery, and emotional coloring of a text. In addition, the use of these parts of speech in different functional styles is analyzed through relevant examples.

**Keywords;** morphological stylistics, noun, adjective, stylistic features, speech style, linguistics, grammatical forms, imagery, expressiveness, speech culture.

**Kirish.** Til insoniyatning eng muhim ijtimoiy hodisalaridan biri bo'lib, kishilar o'rtasidagi aloqa, fikr almashish va axborot uzatishning asosiy vositasi hisoblanadi. Tilning boyligi va ta'sirchanligi undagi leksik, fonetik, morfologik hamda sintaktik vositalarning imkoniyatlari bilan belgilanadi.<sup>12</sup> Ushbu vositalar orasida morfologik birliklar alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular nutqning mazmuni, uslubi va ifodaliligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Morfologik uslubiyat tilshunoslikning muhim bo'limlaridan biri bo'lib, so'z turkumlari va grammatik shakllarning uslubiy imkoniyatlarini o'rganadi. Morfologik birliklarning nutqdagi vazifasini tahlil qilish orqali ularning turli uslublarda qanday qo'llanishi va qanday uslubiy ma'no ifodalashi aniqlanadi. Bu esa tilning ifoda vositalarini chuqurroq anglashga yordam beradi. So'z turkumlari orasida ot va sifatlar alohida o'rin egallaydi. Ot turkumi predmet, shaxs, voqea-hodisa va tushunchalarni nomlash vazifasini bajaradi. Nutqning aniqligi, mantiqiyliigi va mazmundorligi ko'p jihatdan otlarning o'rinli qo'llanishiga bog'liq. Sifat turkumi esa predmetlarning belgi, xususiyat va holatini ifodalab, nutqning obrazlilik hamda ta'sirchanligini oshiradi. Ayniqsa, badiiy asarlarda sifatlar tasvirning yorqin va jonli bo'lishiga xizmat qiladi.

**Asosiy qism.** Morfologik uslubiyat tilshunoslikning so'z turkumlari hamda grammatik shakllarning uslubiy imkoniyatlarini o'rganuvchi bo'limidir. U til birliklarining nutqda qanday maqsadda va qanday uslubiy vazifa bajarishini tahlil qiladi. Morfologik uslubiyat nafaqat so'zlarning grammatik ma'nosini, balki ularning nutq ta'sirchanligini oshirishdagi o'rnini ham o'rganadi. Har bir so'z turkumi o'ziga xos uslubiy imkoniyatlarga ega. Ayrim so'z turkumlari nutqning aniqligini ta'minlasa, boshqalari obrazlilik va hissiylikni kuchaytiradi. Shu jihatdan ot va sifat turkumlari morfologik uslubiyatning muhim o'rganish obyektlaridan hisoblanadi. Ot predmet, shaxs, voqea-hodisa, tushuncha va narsalarning nomini bildiruvchi mustaqil so'z turkumidir. Otlar nutqning asosiy mazmunini tayanchi bo'lib xizmat qiladi. Ular yordamida fikr aniq va tushunarli ifodalanadi. Masalan, ilmiy uslubda "tajriba", "natija", "qonuniyat" kabi otlar ko'p ishlatiladi. Badiiy uslubda esa "muhabbat", "sadoqat", "orzu", "baxt" kabi mavhum

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022

otlar asarning g'oyaviy mazmunini ochishga xizmat qiladi. Otlarning birlik va ko'plik shakllari ham uslubiy ma'no ifodalashi mumkin. Masalan, ko'plik shakli ba'zan hurmat yoki umumlashtirish ma'nosini anglatadi.

### **Xulosa.**

Morfologik uslubiyat tilshunoslikning muhim bo'limlaridan biri bo'lib, so'z turkumlari va grammatik shakllarning nutqdagi uslubiy imkoniyatlarini o'rganadi. Ushbu mavzuni tahlil qilish jarayonida ot va sifat turkumlarining nutqdagi o'rni hamda uslubiy vazifalari yoritildi. Tadqiqot natijasida aniqlandiki, ot turkumi predmet, shaxs, voqea-hodisa va tushunchalarni nomlash orqali nutqning aniqligi, mantiqiyliги va mazmunдорligini ta'minlaydi. Sifat turkumi esa predmetlarning belgi va xususiyatlarini ifodalab, nutqning obrazlilik, ta'sirchanligi va emotsional-ekspressivligini kuchaytiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
2. Mahmudov N. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
3. Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2013.
4. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2018.
5. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010.
6. Hojiyev A. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2002.
7. Yo'ldoshev B. Matn lingvistikasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2007.